



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<b>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</b>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish .....	15
<b>Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</b>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli .....	19
<b>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<b>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</b>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	28
<b>Gulmira Jumanova</b>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	33
<b>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi .....	37
<b>Davlatova Zebo Haydarovna</b>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	40
<b>Ochilova Farida Baxriddinovna</b>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari .....	44
<b>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</b>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<b>Sevara Mamatkarimova</b>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<b>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</b>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<b>Курбанова Шаира Исмаиловна</b>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<b>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</b>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari .....	63
<b>Muminova Feruza Farxodovna</b>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati .....	70
<b>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</b>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....	74
<b>Saidova Dilnoza Maripovna</b>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<b>Дмитрий Валерьевич Пупонин</b>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям .....	82
<b>Муксинова Динора Азаматовна</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti .....	87
<b>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</b>	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar .....	92
<b>Berkinova Charos Islomovna</b>	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
<b>N. R. Masharipova</b>	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimini baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
<b>Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna</b>	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
<b>Pardayeva Aziza Rahmatillojevna</b>	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
<b>Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi</b>	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
<b>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</b>	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari .....	119
<b>Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna</b>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi .....	124
<b>Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi .....	127
<b>Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	130
<b>Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna</b>	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari .....	134
<b>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
<b>Sangirov Nuriddin Iriskulovich</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli .....	142
<b>Rasulova Umida Bahodir qizi</b>	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
<b>Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna</b>	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
<b>Boymatova Munavvar Ravshan qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
<b>Lukmonova Salomat Gafurovna</b>	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari .....	157
<b>Farmonova Madina Bahriddin qizi</b>	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi .....	161
<b>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</b>	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
<b>Choriyeva Xurmo Panji qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislari malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
<b>Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.</b>	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
<b>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</b>	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish .....	181
<b>Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
<b>Axmad Bolqiyev</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</i>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине "Практикум литературы народов СНГ".....	199
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<i>Shermatova Mokhira Baxodir qizi</i>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<i>Musharafxon Sultanova</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<i>Ziyotova Madina</i>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi .....	216
<i>Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</i>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish .....	220
<i>Yusupova Latofat Nuriddinovna</i>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari .....	228
<i>Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</i>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati .....	233
<i>Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</i>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish .....	239
<i>Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</i>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031) .....	245
<i>Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</i>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish .....	251
<i>Eryigitov Dilshod Xolboyevich</i>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English .....	255
<i>J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	259
<i>Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil .....	263
<i>Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</i>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....	267
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<i>Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</i>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	279
<i>Rajabova Go'zal Zarifovna</i>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<i>Sitora Elova Axmatkulovna</i>	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
<b>Umarkulov Muhtorali Islomkulovich</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
<b>Xakimov Xurshid Nozimovich</b>	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
<b>Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.</b>	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
<b>Siddiqova Sanobar Xaydarovna</b>	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
<b>Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal</b>	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
<b>Tangirov A. J.</b>	



# BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA XALQ PEDAGOGIKASI ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH ORQALI EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH



Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
 Biologiya va ekologiya fakulteti, Ekologiya kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etilgan. Muallif o'zbek xalq pedagogikasining ko'p asrlik tajribasini - xalq maqol va matallari, ertak va afsonalari, urf-odat va an'analari, mehnat-xo'jalik tajribasi hamda ma'naviy-axloqiy tarbiya usullarini - zamonaviy biologiya ta'limiga integratsiyalashning ilmiy asoslarini ishlab chiqqan. Tadqiqotda biologiya darslarida qo'llaniladigan xalq pedagogikasi elementlarining to'rtta guruhi aniqlangan: og'zaki ijod materiallari, mehnat-ekologik an'analar, urf-odat va marosimlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar. Tajriba Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysi maktablarida 2025-2026-yillarda 186 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazildi. Natijalar tajriba guruhlarida ekologik madaniyat darajasining 39,2 foizga oshganligini ko'rsatdi. Maqola biologiya o'qituvchilari, metodistlar hamda ekologik ta'lim sohasi mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** xalq pedagogikasi, biologiya ta'limi, ekologik madaniyat, etnopedagogika, xalq ekologiyasi, maqollar, ertaklar, milliy an'analar, ekologik tarbiya, pedagogik integratsiya.

**Abstract:** This article presents a scientific and pedagogical investigation into the development of students' ecological culture through the use of folk pedagogy elements in biology teaching. The author develops a theoretical framework for integrating the centuries-old experience of Uzbek folk pedagogy-proverbs and sayings, fairy tales and legends, customs and traditions, labor-related practices, and spiritual-moral educational methods-into modern biology education. The study identifies four groups of folk pedagogy elements applied in biology lessons: materials of oral folk creativity, labor-ecological traditions, customs and rituals, and spiritual-moral values. The experiment was conducted in schools of the Tashkent region and the Fergana Valley during 2025-2026, involving 186 students. The results indicate a 39.2% increase in the level of ecological culture in the experimental groups. The article is intended for biology teachers, methodologists, and specialists in environmental education.

**Key words:** folk pedagogy, biology education, ecological culture, ethnopedagogy, folk ecology, proverbs, fairy tales, national traditions, environmental education, pedagogical integration.

**Аннотация:** В статье с научно-педагогических позиций исследуются вопросы развития экологической культуры учащихся посредством использования элементов народной педагогики в преподавании биологии. Автором разработаны научные основы интеграции многовекового опыта узбекской народной педагогики - пословиц и поговорок, сказок и преданий, обычаев и традиций, трудово-хозяйственного опыта, духовно-нравственных методов воспитания - в современное биологическое образование. В исследовании выделены четыре группы элементов народной педагогики, применяемых на уроках биологии: материалы устного народного творчества, трудово-экологические традиции, обычаи и обряды, духовно-нравственные ценности. Эксперимент проводился в школах Ташкентской области и Ферганской долины в 2025-2026 годах с участием 186 учащихся. Результаты показали увеличение уровня экологической культуры в экспериментальных группах на 39,2%. Статья предназначена для учителей биологии, методистов и специалистов в области экологического образования.

**Ключевые слова:** народная педагогика, биологическое образование, экологическая культура, этнопедагогика, народная экология, пословицы, сказки, национальные традиции, экологическое воспитание, педагогическая интеграция.

## KIRISH

Zamonaviy ekologik inqirozlar sharoitida yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish pedagogika fanining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2019-2030-yillar davrida "yashil" iqtisodiyotga o'tishi bo'yicha strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni ta'lim tizimida ekologik madaniyatni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berdi (Mirziyoyev, 2019). Bu strategik hujjat zamonaviy ta'lim oldiga nafaqat ekologik bilim, balki ekologik madaniyatni shakllantirish vazifasini qo'yimoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik madaniyat - bu faqat ekologik bilimlar yig'indisi emas, balki shaxsning tabiatga ongli, mas'uliyatli va qadriyatli munosabatini, ekologik axloqiy tamoyillar asosida yashash tarzini, barqaror rivojlanish g'oyalarini anglab yetishini ifodalovchi kompleks shaxs sifatidir. Xorijiy olim D. Orr haqli ravishda ta'kidlaganidek, "ta'lim tizimi odamlarni shunchaki o'qimishli qilib tarbiyalashi mumkin, ammo bizga kerak bo'lgan narsa - tabiatga, jamoatchilikka va o'zlarining joylariga g'amxo'rlik qiladigan odamlarni tarbiyalashdir".<sup>[1]</sup>

Aynan shu g'amxo'rlik, mas'uliyat va qadriyat tuyg'ulari ekologik madaniyatning o'zagini tashkil etadi.

O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixi davomida tabiat bilan uyg'un yashashning noyob madaniy tajribasini yaratdi. Bu tajriba xalq pedagogikasi - xalq maqollari, ertaklari, afsonalari, urf-odatlar, mehnat an'analari, marosimlari va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarida mujassamlangan. "Daraxt kesgan - qabr qazgan", "Yer - boylik manbai, suv - hayot manbai", "Tabiat insonga ota, inson tabiatga farzand" kabi xalq naqllari, "Semurg" afsonasi, "Rustam va Suhrob" dostonlaridagi tabiatga muhabbat motivlari - bularning barchasi zamonaviy ekologik ta'lim uchun bebaho pedagogik manbadir.<sup>[2]</sup>

Lekin zamonaviy biologiya ta'limi amaliyotida xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish ko'pincha tizimsiz va tasodifiy xarakterga ega. O'qituvchilar bu resursning ekologik tarbiyadagi ulkan pedagogik imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga yetarlicha tayyorlanmagan.

Xorijiy tadqiqotchilar Volkov, 2018; Sterling, 2010; Tilbury 2011, MDH olimlari Zakhlebnyy 2017; Vasilyeva 2018 va mahalliy olimlar Qoraboyev, 2020; Tolipova, 2019 xalq pedagogikasining ta'limdagi o'rnini tadqiq qilgan bo'lsalar-da, biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlarini tizimli qo'llash masalasi hanuz yetarlicha o'rganilmagan.<sup>[3]</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning muammosi o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ob'ektiv zarurati bilan biologiya ta'limida xalq pedagogikasi elementlarini tizimli qo'llashning yetarlicha ilmiy asoslanmagan mexanizmlari o'rtasidagi qarama-qarshilikda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi - biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish va ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi samaradorligini eksperimental tasdiqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- 1) xalq pedagogikasi elementlarining biologiya ta'limidagi pedagogik salohiyatini ochib berish;
- 2) ulardan foydalanish shakl va usullarini aniqlash;
- 3) ekologik madaniyatni rivojlantirish mezonlari va darajalarini ishlab chiqish;
- 4) pedagogik shart-sharoitlar to'plamini aniqlash;
- 5) yondashuvning samaradorligini eksperimental tekshirish.

Tadqiqot metodologik asosini fan, madaniyat va ta'limning dialektik birligi haqidagi falsafiy qarashlar, xalq pedagogikasining zamonaviy nazariyasi, ekologik ta'lim nazariyasi hamda kompetensiyaviy, aksiologik, etnopedagogik va madaniyatshunoslik yondashuvlari tashkil etdi.

Metodologik yondashuvlarning tavsifi quyidagicha:

1. **Etnopedagogik yondashuv** - xalq pedagogikasi elementlarini zamonaviy ta'limga organik ravishda integratsiyalash imkoniyatini ochdi. Bu yondashuv xalq tarbiya tajribasini shaxs shakllantirishning eng asosiy manbalaridan biri sifatida tan oladi<sup>[4]</sup>.
2. **Madaniyatshunoslik yondashuvi** - ekologik ta'limni o'quvchining o'z xalqi madaniyatiga kirish jarayoni sifatida tushinishga yo'l ochdi. Ekologik madaniyat milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida qaraldi.<sup>[5]</sup>



3. **Aksiologik yondashuv** - ekologik ta'limning qadriyatli asoslarini ochib berdi va xalq pedagogikasi elementlari orqali ekologik qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlarini aniqlashga yordam berdi. <sup>[6]</sup>
4. **Kompetensiyaviy yondashuv** - ekologik madaniyatni shakllantirishni kompleks kompetensiya sifatida talqin qilish imkonini berdi. <sup>[7]</sup>

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

#### 1. Nazariy metodlar:

- falsafiy, etnografik, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tahlili;
- og'zaki xalq ijodi namunalarini kontent-tahlil qilish;
- qiyosiy-tarixiy tahlil;
- pedagogik modellashtirish;
- sintez va umumlashtirish.

#### 2. Empirik metodlar:

- pedagogik kuzatuv;
- o'quvchilar va o'qituvchilar so'rovnomasi;
- suhbat;
- testlar;
- loyihalar, esse va refleksiv kundaliklarni tahlil qilish;
- uzoq yoshli kishilar (otaxonlar, momoxonlar) bilan etnopedagogik suhbatlar;
- pedagogik eksperiment (aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat bosqichlari).

3. **Matematik-statistik metodlar:** o'rta ko'rsatkichlar hisoblash, Studentning t-mezoni, Pirsonning  $\chi^2$  mezonini yordamida statistik ishonchlilikni aniqlash.

Tadqiqotning eksperimental bazasi - Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 18, 42-umumta'lim maktablari, Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi 9, 27-maktablari, Andijon viloyatidagi 14-maktab. Tadqiqot 2024-2025 yillarda uch bosqichda o'tkazildi. Aniqlovchi bosqichda o'quvchilarning ekologik madaniyat darajasi aniqlandi. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhlarida ishlab chiqilgan yondashuv joriy etildi. Nazorat bosqichida, yakuniy diagnostika va natijalarni umumlashtirish amalga oshirildi.

Tadqiqotda 186 nafar 8-9-sinf o'quvchisi (93 nafar tajriba va 93 nafar nazorat guruhida) hamda 24 nafar biologiya o'qituvchisi ishtirok etdi. Ekologik madaniyat darajasi to'rt mezon bo'yicha aniqlandi: bilimli-tushunchaviy (ekologik bilimlar va xalq ekologik merosini bilish), emotsional-qadriyatli (tabiatga hissiy va qadriyatli munosabat), faoliyatchan (amaliy ekologik faoliyat), refleksiv (o'z ekologik faoliyatini baholay olish). Har bir mezon uchun uch daraja (past, o'rta, yuqori) ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari ishlab chiqildi. Quyidagi asosiy natijalar olindi:

*Birinchi natija* - xalq pedagogikasining biologiya ta'limidagi pedagogik salohiyati aniqlandi. Ushbu salohiyat quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- a) biologik hodisalarni obrazli va emotsional ifodalash (maqollar, afsonalar, ertaklar orqali);
- b) ekologik axloqni ichki qabul qilish (xalq axloqiy-ma'naviy qadriyatlari orqali);
- c) amaliy ekologik tajribani yetkazish (xalq xo'jalik an'analari orqali);
- d) jamoatchilik-ekologik faoliyatga jalb qilish (xashar, jamoatchilik marosimlari orqali);
- e) milliy o'zlikni anglash va ekologik tarbiyani uyg'un shakllantirish.

*Ikkinchi natija* - biologiya darslarida qo'llaniladigan xalq pedagogikasi elementlarining to'rt guruhi tasniflandi:

- *1-guruh: og'zaki xalq ijodi materiallari* - maqol va matallar ("Daraxt ekkan - xayrli ish qilgan"), ertak va afsonalar ("Semurg", "Donolar va tabiat"), qo'shiqlar, topishmoqlar, naqlar, dostonlardagi tabiat tasvirlari.

- **2-guruh: mehnat-ekologik an'analar** - xashar (arik tozalash, ko'chat ekish), tabiatga oid hunarmandchilik (bog'dorchilik, ipakchilik, chorvachilik an'analari), an'anaviy tabiatdan foydalanish usullari, mavsumiy mehnat an'analari (Navro'z, hosil yig'ish bayramlari).
- **3-guruh: urf-odat va marosimlar** - "Ko'chat bayrami", "Navro'z", "Qovun sayli", "Gul sayli", mahallada daraxt ekish an'analari, tabiat obyektlari bilan bog'liq e'tiqodlar.
- **4-guruh: ma'naviy-axloqiy qadriyatlar** - tabiatga muhabbat va hurmat, hayvon va o'simliklarga rahm-shafqat, yerga sajda qilish an'anasi, kattani hurmatlash va uning ekologik tajribasini qadrlash, me'yor tuyg'usi ("Yem-yeyma, yig'-yig'ma" - keraksizcha olma va to'plama).

*Uchinchi natija* - xalq pedagogikasi elementlaridan biologiya darslarida foydalanishning tashkiliy shakllari ishlab chiqildi: etnobotanik dars (xalq shifobaxsh o'simliklari asosida botanikani o'rganish), etnozologik dars (xalq hayvonlar haqidagi bilimlari asosida zoologiyani o'rganish), dars-sujet (ertak va afsonalar asosida), dars-ustaxona (xalq hunarmandchiligi bilan bog'liq biologik jarayonlar), etnoekologik ekspeditsiya (mahalla oqsoqollaridan ekologik bilimlarni yozib olish).

*To'rtinchi natija* - pedagogik shart-sharoitlar majmuasi aniqlandi:

- a) o'qituvchining etnopedagogik va ekologik-madaniy tayyorgarligi;
- b) mahalliy xalq pedagogikasi materiallarining ma'lumotlar bazasini yaratish;
- c) maktab va mahalla, oilalar hamda madaniyat muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik;
- d) milliy va global ekologik qadriyatlarning uyg'un birikuvi;
- e) o'quvchilarni ijodiy izlanishga undovchi muhit yaratish;
- f) keksa avlod bilan yoshlarning ekologik muloqotini tashkil etish.

Beshinchi natija - pedagogik eksperiment natijalari ishlab chiqilgan yondashuvning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Aniqlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida ekologik madaniyat darajasi deyarli bir xil edi. Nazorat bosqichida tajriba guruhida yuqori daraja ko'rsatkichi 15,1% dan 54,3% ga (o'sish 39,2%) ko'tarildi, past daraja esa 41,9% dan 8,6% ga tushdi. Nazorat guruhida yuqori daraja ko'rsatkichining o'sishi atigi 12,9% ni tashkil etdi. Farqlar statistik jihatdan ishonchli ( $p < 0,01$ ;  $\chi^2 = 26,8$ ).

O'quvchilar ishlari sifatli tahlili ularning ekologik tafakkurida chuqur o'zgarishlarni ko'rsatdi: milliy-madaniy ekologik qadriyatlarni shaxsiy hayotiy pozitsiya sifatida qabul qilish, ekologik muammolarni kompleks (ilmiy va madaniy) jihatdan ko'ra olish, ekologik faollikning ortishi.

**Muhokama.** Olingan natijalar zamonaviy pedagogika fanining ekologik ta'lim va etnopedagogika sohasidagi nazariy-amaliy yutuqlari bilan uyg'unlikda muhokama qilinishi lozim.

Rus pedagogikasida G.N. Volkov etnopedagogika fanining asoschisi sifatida xalq pedagogikasini "xalq madaniyatining tarbiya sohasidagi tarixiy-pedagogik tajriba" deb ta'riflagan.<sup>[8]</sup> Uning qarashlari tadqiqotimiz metodologik asoslarining muhim qismini tashkil etdi. Biroq Volkovning tadqiqotlari asosan rus va Kavkaz xalqlari pedagogikasiga asoslangan bo'lib, o'zbek xalq pedagogikasining biologiya ta'limidagi o'rni uning ishlarida alohida o'rganilmagan.

Xorijiy olim D. Orr "Earth in Mind" ("Tafakkurdagi Yer") asarida ta'kidlaganidek, zamonaviy ta'limning asosiy muammosi – u odamlarni o'z joylaridan va an'alaridan ajratishdadir.<sup>[9]</sup> Bu fikr tadqiqotimiz natijalarida to'liq tasdig'ini topdi: xalq pedagogikasi elementlari aynan o'quvchilarni o'z madaniy ildizlariga qaytarish, shu orqali esa ekologik madaniyatni chuqur shaxsiy darajada shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qildi.

Xuddi shunday, D. Sobel "Place-Based Education" konsepsiyasida maktab ta'limini mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog'lashni taklif qilgan.<sup>[10]</sup> Bizning yondashuvimiz Sobel konsepsiyasini o'zbek madaniy muhitida konkretlashtirishga xizmat qiladi.

Ingliz olimi S. Sterling "Sustainable Education" asarida ekologik ta'limni oddiy bilim berish emas, balki o'quvchi ongini tubdan o'zgartirish jarayoni sifatida talqin qilgan.<sup>[11]</sup>

Avstraliyalik olim D. Tilbury esa barqaror rivojlanish ta'limining ekspert sharhida madaniy-milliy xilmaxillikni bu jarayonning ajralmas qismi sifatida tan olgan.<sup>[12]</sup>

Bizning tadqiqotimiz ushbu nazariy qoidalarni amaliy darajada realizatsiya qilishning konkret yo'lini taklif etadi.

MDH olimlari orasida A.N. Zakhlebnyy ekologik ta'limning umumiy konsepsiyasini ishlab chiqdi va unda madaniy komponentning muhimligini ko'rsatdi.<sup>[13]</sup>

T.S. Vasilyeva xalq pedagogikasi va ekologik tarbiya o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy jihatdan asosladi.<sup>[14]</sup>



Biroq bu olimlarning ishlarida biologiya fanini o'qitishning konkret darsiy metodikasi bilan xalq pedagogikasi elementlarini sintez qilish masalasi maxsus tadqiqot predmeti sifatida qo'yilmagan. Bu bizning tadqiqotimizning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari ham nazariy asosimizning muhim qismini tashkil etdi.

K. Hoshimov o'zbek xalq pedagogikasining fundamental tahlilini bergan bo'lsa Hoshimov, J.O. Tolipova biologiya ta'limi metodikasining zamonaviy masalalarini ishlab chiqqan.<sup>[15]</sup>

M. Qoraboyev o'zbek xalqi ekologik merosining pedagogik salohiyatini tadqiq qilgan.<sup>[16]</sup>

Bu tadqiqotlar bizning yondashuvimiz uchun muhim asos bo'lib, ammo ularda xalq pedagogikasi elementlari va biologiya darsining sinfda konkret integratsiyasi tizimli ravishda ishlab chiqilmagan edi.

Tadqiqotimiz natijalari F. Berkesning "Sacred Ecology" ("Muqaddas ekologiya") asaridagi tezis bilan ham hamohangdir. U an'anaviy ekologik bilimlar – mahalliy jamoalar tomonidan to'plangan bo'lib, ko'p hollarda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi, degan fikrni ilgari surgan.<sup>[17]</sup>

O'zbek xalq pedagogikasidagi, masalan, sut emizikli hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, suvdan tejimli foydalanish, yerni unumdor saqlash an'analari - bularning barchasi zamonaviy ekologiya fanining asosiy tamoyillariga mos keladi.

Tadqiqot J. Ravenning kompetensiya nazariyasi kontekstida ham muhim ahamiyatga ega. Raven kompetensiya faqat bilim va ko'nikma yig'indisi emas, balki motivatsiya va qadriyatlarning birligi ekanligini ko'rsatgan.<sup>[18]</sup>

Bizning yondashuvimizda xalq pedagogikasi elementlari aynan shunday motivatsion-qadriyatli asos vazifasini bajarib, biologik bilimlarni o'quvchilar hayotida chinakam ekologik madaniyatga aylantiradi.

Shuningdek, tadqiqotning ba'zi cheklovlarini e'tirof etish lozim.

*Birinchidan*, eksperiment asosan O'zbekistonning o'zbek tilida ta'lim oluvchi maktablarida o'tkazildi; boshqa millat vakillarining maktablarida ham shu yondashuvni sinab ko'rish maqsadga muvofiq.

*Ikkinchidan*, tadqiqot davomiyligi (2 yil) uzoq muddatli ta'sirlarni baholashga yetarli emas.

Kelajakdagi tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarda o'tkazilishi mumkin:

- yondashuvni boshlang'ich va o'rta bo'g'in o'quvchilariga moslashtirish;
- raqamli ta'lim resurslarini yaratish (virtual muzey, mobil ilovalar);
- Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik merosining qiyosiy tadqiqotlari.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish va eksperimental tekshirish imkonini berdi. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Xalq pedagogikasi - o'zbek xalqining ko'p asrlik pedagogik tajribasi - biologiya fanini o'qitishda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim manbai hisoblanadi. Uning pedagogik salohiyati biologik hodisalarni obrazli ifodalash, ekologik axloqni ichki qabul qilishga ko'maklashish, amaliy ekologik tajribani yetkazish va milliy o'zlikni ekologik tarbiya bilan uyg'un shakllantirishda namoyon bo'ladi.
2. Biologiya darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan xalq pedagogikasi elementlari to'rt guruhga bo'linadi: og'zaki xalq ijodi materiallari, mehnat-ekologik an'analari, urf-odat va marosimlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar. Har bir guruh o'ziga xos pedagogik vazifalarni bajaradi va biologik ta'lim mazmunining turli sohalari bilan integratsiyalashishi mumkin.
3. Xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanishning samarali tashkiliy shakllari: etnobotanik dars, etnozoologik dars, dars-sujet, dars-ustaxona, etnoekologik ekspeditsiya. Bu shakllar an'anaviy biologiya darsi formatini boyitib, uni o'quvchilar uchun madaniy jihatdan ma'noli va emotsional darajada yaqinroq qiladi.
4. Yondashuvning samaradorligi pedagogik shart-sharoitlar majmuasi orqali ta'minlanadi: o'qituvchining etnopedagogik tayyorgarligi, mahalliy materiallar bazasi, maktab-mahalla-oila hamkorligi, milliy va global qadriyatlarning uyg'un birikuvi, avlodlararo muloqot va ijodiy muhit.
5. Eksperimental tadqiqot yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqladi: tajriba guruhida ekologik madaniyatning yuqori darajasi 39,2 foizga ortdi ( $p < 0,01$ ), bu nazorat guruhi ko'rsatkichidan sezilarli darajada ko'pdir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular biologiya o'qituvchilari amaliyotida, darsliklar va o'quv-metodik majmualar yaratishda, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida qo'llanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar yondashuvni boshqa ta'lim bosqichlariga moslashtirish, raqamli ta'lim resurslari ishlab chiqish va Markaziy Osiyo mamlakatlari pedagogik tajribalarini qiyosiy o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Orr, D. W. (2004). *Earth in mind: On education, environment, and the human prospect* (10th anniversary ed.). Island Press, 240 p.
2. Hoshimov, K. (2019). *O'zbek xalq pedagogikasi: nazariya va tarix*. Toshkent: Sharq, 312 b.
3. Волков, Г. Н. (2018). *Этнопедагогика* (3-е изд.). М.: Академия, 176 с, Sterling, S. (2010). *Sustainable education: Re-visioning learning and change*. Green Books, 94 p, Tilbury, D. (2011). *Education for sustainable development: An expert review of processes and learning*. UNESCO, 132 p, Захлебный, А. Н. (2017). *Концепция общего экологического образования в интересах устойчивого развития*. М.: Академия, 258 с, Васильева, Т. С. (2018). *Народная педагогика и экологическое воспитание школьников* М.: Просвещение, 224 с, Qoraboyev, M. (2020). *O'zbek xalqi ekologik merosining pedagogik salohiyati*. Toshkent: O'qituvchi, 186 b, Tolipova, J. O. (2019). *Biologiya ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Noshir, 268 b.
4. Волков, Г. Н. (2018). *Этнопедагогика* (3-е изд.). М.: Академия.
5. Бондаревская, Е. В. (1999). *Гуманистическая парадигма лично-ориентированного образования*. Педагогика, (4), 11–17.
6. Сластенин В. А., Исаев И. Ф. и Шиянов Э. Н. (2004). *Педагогика*. М.: Академия.
7. Raven, J. (2001). *The conceptualisation of competence*. In J. Raven & J. Stephenson (Eds.), *Competence in the learning society* (pp. 253–274). Peter Lang.
8. Волков, Г. Н. (2018). *Этнопедагогика* (3-е изд.). М.: Академия.
9. Orr, D. W. (2004). *Earth in mind: On education, environment, and the human prospect* (10th anniversary ed.). Island Press.
10. Sobel, D. (2014). *Place-based education: Connecting classrooms and communities* (2nd ed.). Orion Society, 104 p.
11. Sterling, S. (2010). *Sustainable education: Re-visioning learning and change*. Green Books.
12. Tilbury, D. (2011). *Education for sustainable development: An expert review of processes and learning*. UNESCO.
13. Захлебный, А. Н. (2017). *Концепция общего экологического образования в интересах устойчивого развития*. М.: Академия.
14. Васильева, Т. С. (2018). *Народная педагогика и экологическое воспитание школьников* М.: Просвещение.
15. Hoshimov, K. (2019). *O'zbek xalq pedagogikasi: nazariya va tarix*. Toshkent: Sharq, Tolipova, J. O. (2019). *Biologiya ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Noshir.
16. Qoraboyev, M. (2020). *O'zbek xalqi ekologik merosining pedagogik salohiyati*. Toshkent: O'qituvchi.
17. Berkes, F. (2018). *Sacred ecology* (4th ed.). Routledge, 394 p.
18. Raven, J. (2001). *The conceptualisation of competence*. In J. Raven & J. Stephenson (Eds.), *Competence in the learning society* (pp. 253-274). Peter Lang.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.